O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN
Guliston davlat pedagogika instituti
Rektori _____ J.X.Karshibayev
29-avgust 2025-yil

AKADEMIK HALOLLIK VA ILMIY - TADQIQOT ETIKASI

Guliston–2025

Tuzuvchilar:

B.D.Ergashov Guliston davlat pedagogika instituti Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d (PhD) dotsent

T.Sh.Muhammadiyev Guliston davlat pedagogika instituti Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi bosh mutaxassisi

Mazkur “Akademik halollik va ilmiy - tadqiqot etikasi” Guliston davlat pedagogika instituti 2025 yil “1” - son Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan.

KIRISH

Akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi ta’limning samaradorligini oshirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va mamlakatda har qanday fanni rivojlantirishning asosiy ustunlari hisoblanadi.

Guliston davlat pedagogika instituti (keyingi o‘rinlarda GDPI deb yuritiladi) akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi bo‘yicha xalqaro tan olingan standartlarni e’tirof etadi. GDPI mazkur standartlarni joriy qilish maqsadida o‘z faoliyatida akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi qoidalariga qat’iy rioya qilishni, kadrlar tayyorlash hamda ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor vazifasi etib belgilaydi.

GDPI ning Akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi kodeksi (keyingi o‘rinlarda - Kodeks deb yuritiladi) bilan belgilab berilayotgan qoidalarga rioya qilish uchun asosiy mas’uliyat har bir talaba, professor-o‘qituvchi va xodim zimmasiga yuklatiladi. Bunda institutning har bir a’zosi boshqalarning huquqlarini hurmat qilish kabi fazilatlarni namoyon etishlari zarur.

Mazkur Kodeks va uning asosiy qoidalari GDPI ning o‘quv va ilmiy faoliyatida akademik halollik hamda ilmiy-tadqiqot etikasining umumqabul qilingan standartlarini joriy qilishga qaratilgan bo‘lib, ushbu sohadagi uchta muhim vazifani amalga oshirishni belgilaydi:

1) akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasiga daxldor axloqiy qoidalarni o‘rnatish hamda noaxloqiy xatti-harakatlarni oldini olish;

2) GDPI talabalari va xodimlarida plagiat (ko‘chirmachilik)ga murosasiz munosabatda bo‘lish kayfiyatini shakllantirish hamda akademik halollikni keng targ‘ib qilish;

3) akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi sohasida talabalar va xodimlar uchun mos bo‘lgan axloqiy xususiyatlarni shakllantirish.

Ushbu Kodeks talablari o‘quv va ilmiy-tadqiqot jarayonining barcha ishtirokchilari hamda boshqalarning ijodiy mehnati natijalariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kayfiyatini shakllantirishga, ilmiy faoliyat natijalarini intellektual mulk sifatida tan olishga va unga nisbatan munosib munosabatni rag‘batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

I. Umumiy qoidalar va asosiy tushunchalar

1. Mazkur Kodeks GDPI talabalari, professor-o‘qituvchilari, xodimlari, o‘quv jarayonini tashkil etuvchi tarkibiy bo‘linma rahbarlari, tadqiqotchilar (doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar)ning akademik halolligi masalalariga adolatli, oshkora, to‘g‘ri munosabatni shakllantirish va ularning ilmiy-tadqiqot etikasiga rioya qilishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Kodeksning maqsadi akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi qoidalarini belgilash, ularni amalga oshirish va nazorat qilishni ta’minlash, shuningdek talabalar (bakalavriat va magistratura talabalari), tadqiqotchilar,

pedagog xodimlarning o‘quv hamda ilmiy tadqiqot doirasida akademik halollik, ta’lim va mehnat faoliyatidagi ilmiy-tadqiqot etikasi tamoyillarini belgilashdan iborat.

3. Akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi qoidalari akademik faoliyat (joriy, oraliq, yakuniy nazorat ishlari, darslik, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, fan moduli kontentlari) va ilmiy tadqiqot faoliyatining barcha shakllarini (barcha turdagi ilmiy ishlarni) tayyorlash, ularga taqriz berish, opponent bo‘lish, iqtiboslar keltirish va nashr etishda institutning barcha xodimlari, doktorant va mustaqil izlanuvchilariga taalluqlidir.

4. Asosiy tushunchalar:

Akademik halollik o‘qish va yozma ishlarni bajarishda (testlar, esselar, loyihalar, bitiruv malakaviy ishlari va dissertatsiyalar), oraliq va yakuniy nazoratlar, imtihonlarda savollarga javob berishda, tadqiqot olib borishda, o‘z bilimini ifoda etishda, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar hamda talabalar bilan munosabatlarda halollikni ifoda etadigan qadriyatlari va tamoyillarining majmui. Bunda tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ma’lumotlar, ilmiy natijalar, usullar, tartiblar va ilmiy nashrning holati haqqoniy va xolisona ko‘rsatilishi, plagiat (ko‘chirmachilik), mavjud ma’lumotlarni soxtalashtirish va qalbaki ma’lumotlarni yaratishga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Tadqiqot umumlashtirish mumkin bo‘lgan bilimlarni yaratish yoki mavjud shunday bilimlarga hissa qo‘shishga qaratilgan tizimli o‘rganish, shu jumladan, tadqiqotlarni ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish va baholashdan iborat jarayon.

Ilmiy-tadqiqot etikasi talabalar, tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining barcha shakllarida halollik, shaxsiy mas’uliyat, ochiqlik va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, professional yondashuv, akademik obro‘ni saqlash va boshqa umume’tirof etilgan etika qoidalari va tamoyillarining majmui.

Turnitin bu talabalar ishini onlayn manbalar, jurnal maqolalari, kitoblar va boshqa mavjud manbalar, shu jumladan Turnitin orqali ilgari yuborilgan hujjatlar bilan solishtirish uchun ishlatiladigan dastur.

II. Asosiy tamoyillar

5. Akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasining asosiy tamoyillari:

vijdonlilik baholanadigan va baholanmaydigan o‘quv va ilmiy ishlarni halol, munosib bajarish;

ochiqlik (shaffoflik) talabalar, professor-o‘qituvchilar va GDPIning boshqa xodimlari o‘rtasida oshkoralik, o‘zaro ishonch, ta’lim, ilmiy ma’lumotlar, manbalar, tadqiqot usullari, vositalar, natijalar va g‘oyalar

almashinuvi. Bunda ilmiy ish va uning natijalari borasida bildirilgan tanqidiy fikrlar va yangi g‘oyalar ishni takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

huquq va erkinliklarni hurmat qilish ijodiy fikr va g‘oyalarni erkin ifoda etish huquqi;

tenglik har bir talaba, professor-o‘qituvchi, tadqiqotchi va boshqa xodimlarning akademik halollik hamda ilmiy-tadqiqot etikasi qoidalariga rioya qilish va ularning buzilishi uchun teng javobgar bo‘lishi;

to‘g‘rilik va halollik tamoyili foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga yoki ishni ichida biron-bir manbani kiritish hamda unga havola berish uchun muallif ushbu manbani shaxsan o‘qib chiqishi va ushbu manbada o‘zi iqtibos keltirgan fikrni o‘zgartirmagan holda keltirishi;

manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish talabalar, izlanuvchilar va xodimlarning o‘z tadqiqotlaridagi takliflar, chop etilgan materiallar, ommaviy nashrlar, shuningdek, boshqa barcha turdagi ilmiy ishlarda bunday ishning haqqoniyligiga ziyon yetkazadigan moliyaviy va boshqa xarakterdagi manfaatlar to‘qnashuvi haqida tegishli shaxsga xabar berishlari;

ilmiy-tadqiqotning originalligi ilmiy-tadqiqot etikasiga asoslangan nashr ilmiy bilimlar yoki amaliy ko‘nikmalarni oshirishga hissa qo‘shadigan xulosalarga ega bo‘lgan original ilmiy-tadqiqotni nashr etishni nazarda tutadi. Bunda ilmiy-tadqiqot ishi haqqoniy tadqiqotga asoslangan, ya’ni fanda allaqachon mavjud bo‘lgan xulosalarni emas, balki yangi bilimlar va yondashuvlarni taqdim etsa original ish hisoblanadi;

ilmiy-tadqiqot erkinligi tadqiqotchining mavzuni tanlashda, izlanish olib borishda va tadqiqot natijalarini e’lon qilishda erkinligini bildirib, bunda tadqiqotchining ilmiy va ijodiy faoliyatiga asossiz aralashish yoki asossiz talablar belgilash mumkin emas;

diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik xodimlar, tadqiqotchilar yoki talabalarni jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi yoki (ilmiy salohiyati va halolligi bilan bog‘liq bo‘lmagan) boshqa omillar asosida kamsitishga yoki imtiyozlar belgilashga yo‘l qo‘yilmasligi;

ilmiy-tadqiqotning aniqligi, barqarorligi va to‘laligi ilmiy ishni shakllantirishda ma’lumotlar, fikr-mulohazalar, xulosalar mazmuni tugal va aniq ifoda etilishi, mantiqiy izchillikka rioya qilinishini ifodalaydi;

havolalarning reprezentativligiga rioya qilish muallif ilmiy tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha ushbu sohadagi eng yaxshi va eng muhim asarlarga murojaat qilishi, ishni dolzarbligini ko‘rsatish uchun har doim eng so‘nggi nashrlardan iqtibos keltirishi;

ehtiyotkorlik beparvolik natijasida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik, o‘z ishini hamda tegishli mavzuga oid boshqa ishlarni va

ma’lumotlarni lozim darajadagi e’tibor bilan o‘rganishi, tahlil qilishi hamda shakllantirish mas’uliyati;

sir tutilishi lozim bo‘lgan axborot maxfiyligiga rioya etish ilmiy-tadqiqotni amalga oshirishda shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlash tartibiga hamda tijorat va xizmat sirlari maxfiyligiga rioya etish;

ilmiy-tadqiqot olib borishda javobgarlik muallif yoki uning merosxo‘rlarining huquqlarini muhofazasiga qat’iy rioya qilish va ularning asarlaridan o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida foydalanish jarayonida havolalarni to‘g‘ri va aniq keltirish;

akademik muhitda professional xushmuomalalik va madaniyat akademik faoliyat va ilmiy tadqiqotlarda o‘zaro suhbat, bahs va munozaralarda professional madaniyatga qat’iy rioya qilish, xushmuomalalik va etika qoidalarini shaxsiy xarakter va yutuqlardan ustun qo‘yish;

ilmiy-tadqiqotni samarali boshqarish boshqalar manfaati uchun tadqiqot sifatini boshqarish bo‘lib, u ilmiy tadqiqot natijalarini boshqalar tomonidan keng foydalanishi uchun qulay shaklda taqdim etish va uni jahon tadqiqot jamoatchiligi foydalanishi mumkin bo‘lgan joylarga joylashtirish;

ilmiy-tadqiqotning xolisligi (ilmda manfaatlar muvozanatini saqlash) tadqiqotlar obyektiv ehtiyojlarga muvofiq bo‘lishi hamda tadqiqot olib borilayotgan taraflarning manfaatlari bir xil va xolis o‘rganilishni ifodalab, bunda xodim, talaba va tadqiqotchining ilmiy izlanishlari noxolis axborot asosida ayrim toifadagi shaxslar manfaatlariga xizmat qiladigan yondashuvdan xoli bo‘lishi lozim;

chop etish mas’uliyati ilmiy natijalarni martaba oshirish maqsadida emas, balki ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish hamda keng jamoatchilikni xabardor etish uchun nashr etish akademik mas’uliyatini namoyon etib, bunda ko‘chirmachilik asosidagi takroriy nashrlarni chop etishdan saqlanish tavsiya etiladi.

6. Mazkur Kodeksning asosiy tamoyillariga rioya etilishi, jumladan, akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi qoidalarining bajarilishini ta’minlash maxsus dasturiy vositalar orqali topshirilayotgan matnlarning originalligini tekshirish va jamoatchilik nazorati vositalari orqali amalga oshiriladi.

III. Huquq va majburiyatlar

7. GDPI mazkur Kodeks qoidalarini bajarilishini talab qilishga va ular buzilgan taqdirda tegishli choralar (sanksiyalar) qo‘llashga haqlidir.

8. GDPIning akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasini ta’minlash sohasidagi majburiyatlari:

akademik va ilmiy-tadqiqot ishlarining originalligini (o‘ziga xosligi) tekshirish uchun elektron tizimlardan bepul foydalanish uchun sharoitlar yaratish;

talabalar va xodimlarning akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi sohasidagi huquq va majburiyatlari to‘g‘risida xabardor qilish;

qonunchilik talablariga muvofiq talabalar va xodimlarning shaxsiy hamda maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilishdan to‘liq himoya qilish choralarini ko‘rish;

talabalar va xodimlarni ularning yozma ishlari maxsus elektron tizimlardan foydalanilgan holda originalligi (o‘ziga xosligi) tekshirilishi haqida xabardor qilinishini tashkil qilish;

institut web-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida mazkur Kodeks bo‘yicha o‘rnatilgan qoidalar haqida axborotlar, infografikalarni joylashtirilishini tashkil qilish;

mazkur Kodeks ijrosini samarali va obyektiv ko‘ruvchi, tegishli javobgarlik choralarini qo‘llash huquqiga ega bo‘lgan Akademik kengash Ilmiy-Tadqiqot etikasi kengashi faoliyatini samarali tashkil qilish;

institutda akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasiga rioya qilinishi bilan bog‘liq murojaatlarni elektron yuborish va ularni o‘rganish bo‘yicha tegishli mexanizmlarni yaratish;

“Akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasiga rioya qilishni targ‘ib qilish” dasturini ishlab chiqish va uni keng ko‘lamda amalga oshirish;

mazkur Kodeks talablarining bajarilishini ta’minlashda tenglik, adolat, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillariga rioya qilish;

talabalar va xodimlar tomonidan institutda akademik halollikni ta’minlash va ilmiy-tadqiqot etikasiga rioya qilinishi bo‘yicha turli xil targ‘ibot vositalaridan foydalanish;

akademik nohalollik (qoidabuzarlik) va ilmiy-tadqiqot etikasini buzish holatlari haqida xabar bergan shaxslarning shaxsini oshkor qilmaslik va boshqa o‘z vakolati doirasidagi majburiyatlar.

9. Fakultetlarning majburiyatlari:

talabalarga har o‘quv yili boshlanishida “Tanishtiruv hafta”ligi (“Orientation-week/Induction week”) doirasida “Akademik halollik” mohiyati, uni professional kadr sifatida shakllanishida tutgan o‘rni, uning yuzaga kelish shakllari haqida tushuntirish kurslarini tashkil qilish;

akademik halollik va ilmiy-tadqiqot o‘tkazish etikasiga daxldor axloqiy qoidalarni o‘rnatish hamda noaxloqiy xatti-harakatlarni sodir etishning oldini olish;

GDPI talabalari va xodimlarida plagiat (ko‘chirmachilik)ga murosasiz munosabatda bo‘lish kayfiyatini shakllantirish hamda akademik halollikni keng targ‘ib qilish;

malakali mutaxassislar tomonidan mazkur kodeks qoidalari haqida batafsil tushuntirish tashkil qilish;

talabalar va professor-o‘qituvchilarni akademik halollik talablari to‘g‘risida doimiy ravishda xabardor qilib borilishlarini ta’minlash hamda rioya etishlarini nazorat qilish;

mazkur Kodeksning 8-bandida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qatnashishi shart.

10. Kafedralarning majburiyatlari:

xodimlarga antiplagiat tizimidan foydalanish va u asosida akademik halollikni aniqlash bo‘yicha treninglar tashkil qilish;

professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmalariga o‘rgatish va plagiatni qayta aniqlash;

kafedraning akademik faoliyatida mazkur kodeks qoidalarini qo‘llash va uning ijrosini ta’minlash;

xodimlar, talabalar va tadqiqotchilarga tegishli ilmiy yoki akademik darajani muvaffaqiyatli qo‘lga kiritishda yordam berish hamda talabalarga barcha kurslar, nazorat ishlari, topshiriqlar va imtihon materiallarida mualliflik huquqi qoidalariga rioya qilgan holda akademik halollik va ilmiy axloq qoidalari bo‘yicha aniq ko‘rsatma hamda tavsiyalar berish;

talabalar hamda tadqiqotchilarga Kodeks doirasida ularning huquq va majburiyatlari to‘g‘risida tushuntirishlar berish, belgilangan tartibda bajarilishini nazorat qilish;

mazkur Kodeksning 8-bandida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qatnashishi shart.

11. GDPI professor-o‘qituvchilari Kodeks qoidalari bo‘yicha barcha darajadagi va o‘quv shaklidagi ta’lim oluvchilar bilan har qanday mavjud vositalar orqali tushuntirish ishlarini olib borishlari kerak: og‘zaki tushuntirishlar, sillabusdagi eslatmalar, mustaqil ishlarni bajarish uchun tarqatma materiallar va boshqalar.

12. Talabalar va tadqiqotchilar o‘z ishlarini bajarishda mazkur Kodeks bilan belgilangan qoidalarga, ilmiy etika va mualliflik huquqining fundamental prinsiplariga rioya qilishlari shart.

Tadqiqotchilarning akademik halollik hamda ilmiy-tadqiqot etikasini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlari:

halollik: tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarini to‘g‘riligi va akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasiga rioya qilgan holda tayyorlaganligi uchun javobgardirlar;

qoidalarga bo‘ysunish: tadqiqotchilar institutning ilmiy-tadqiqot o‘tkazish bilan bog‘liq tartib-qoidalari bilan tanishishlari va ularga rioya qilishlari lozim;

ilmiy-tadqiqot metodlari: tadqiqotchilar tadqiqot o‘tkazishda tegishli metodlardan foydalanishlari, xulosalarni tanqidiy tahlildan o‘tkazishlari,

natijalar va talqinlarida to‘liq hamda xolis axborot berishlari kerak;

ilmiy-tadqiqot qaydlari: tadqiqotchilar ilmiy-tadqiqot bo‘yicha ma’lumotlarni aniq va tushunarli tarzda qayd etib borishlari darkor, bunda mazkur ish bilan boshqalar ham tanishishi va foydalana olishi imkoniyati yaratiladi;

ilmiy-tadqiqot natijalari: tadqiqotchilar mualliflik huquqiga ega bo‘lishlari va ustuvor yo‘nalishlarni belgilaganlari zahoti ma’lumotlar va natijalar bilan o‘zaro ochiq va tezkor almashishlari lozim;

mualliflik huquqi. Tadqiqotchilar barcha ilmiy ishlarga qo‘shgan hissalari, bu boradagi hisobotlari va ilmiy-tadqiqotning mualliflik huquqi unga tegishliligini isbotlovchi ma’lumotlarni saqlash bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlari kerak. Mualliflar ro‘yxati faqat tegishli mualliflik mezonlariga javob beradigan va ishga o‘z hissasini qo‘shgan shaxslarni o‘z ichiga olishi kerak;

nashr tasdig‘i: tadqiqotchilar chop etilgan materiallarda ilmiy-tadqiqotga sezilarli hissa qo‘shgan, ammo mualliflik mezonlariga to‘g‘ri kelmaydiganlarning barchasini, jumladan, yozuvchilar, homiylar va boshqalarni ko‘rsatishlari lozim;

ekspert bahosi: tadqiqotchilar boshqalarning ishiga taqriz berishda maxfiylikka rioya qilishlari hamda o‘z vaqtida adolatli, qat’iy baho berishlari kerak;

manfaatlar to‘qnashuvi: tadqiqotchilar ilmiy-tadqiqotdagi takliflar, chop etilgan materiallar, ommaviy xabarlar, shuningdek, barcha sharhlarda ishning haqqoniyligiga ziyon yetkazadigan moliyaviy va boshqa xarakterdagi manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berishlari shart;

jamoatchilik bilan aloqa: tadqiqotchilar ilmiy-tadqiqot natijalarining ahamiyati va tan olinishiga doir ommaviy muhokamalarda ishtirok etganda o‘z shaxslarining e’tirof etilishiga qaratilgan izohlarni cheklashlari hamda professional izohlarni shaxsiy qarashlarga asoslangan fikrdan ajrata olishlari lozim;

nomaqbul ilmiy-tadqiqot amaliyoti haqida xabar berish: tadqiqotchilar ilmiy-tadqiqotni o‘tkazishdagi noqonuniy harakatlar, xususan, ma’lumotlarni o‘zidan to‘qib chiqarish, soxtalashtirish, ko‘chirmakashlik kabi, shuningdek, ilmiy-tadqiqotning haqqoniyligiga putur yetkazadigan ehtiyotsizlik, mualliflarga havola qilishdagi xatolik, qarama-qarshi ma’lumotlarni ko‘rsatmaslik, chalkashlik hosil qiluvchi tahlil metodlaridan foydalanish kabi holatlar haqida tegishli institutning vakolatli tuzilmalariga xabar berishlari shart.

IV. Akademik nohalollik (qoidabuzarlik) va ilmiy-tadqiqot etikasining buzilish shakllari

13. Akademik qoidabuzarlik shakllari quyidagilardir:

Plagiat (ko‘chirmachilik) bu o‘zgalarning ijodiy faoliyati natijalari, g‘oyalari, so‘zlarini qo‘lyozma, bosma yoki elektron shaklda bo‘lgan barcha nashr etilgan va nashr etilmagan materiallarni muallifning roziligisiz ataylab o‘zining fikri sifatida taqdim etish, jumladan, undan manbaga to‘liq havola qilmasdan foydalanish. Plagiat holatlariga ruxsatsiz ravishda boshqa birovning oshkor qilingan yoki oshkor qilinmagan asarining ayrim qismlarini to‘liq qayta ishlash yoki ifoda yo‘sinini o‘zgartirish, manba (havola)ni ko‘rsatmaslik yoki uni inkor qilish va ushbu asarni o‘ziniki sifatida taqdim etish kiradi.

Falsifikatsiya (ma’lumotlarni soxtalashtirish) o‘z qarashlari, gipotezalari va boshqa ma’lumotlarni asoslash maqsadida muayyan ma’lumotlarni o‘zgartirib ko‘rsatish yoki ilmiy ishga kiritmaslik.

Fabrikatsiya (qalbaki ma’lumotlar yaratish) ilmiy-tadqiqot ishida asli mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni yuz bergandek qilib ko‘rsatish.

Mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan ijodiy faoliyat natijalariga O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasi talablariga javob beradigan asarlar kiradi.

14. Plagiat quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

asar muallif(lar)ini (manbasini) ko‘rsatmagan holda foydalanish va iqtibos keltirish;

boshqalar tomonidan yaratilgan asarni to‘liq ko‘chirgan holda yoki ilmiy-tadqiqot ishi doirasida mos hajmdan ortiq darajada foydalanish orqali o‘zlashtirish;

fikrni manbasini ko‘rsatmasdan o‘zgartirib ifodalash;

internetdan to‘liq olingan yoki ilgari taqdim etilgan yozma ishni (oraliq, yakuniy nazorat), bitiruv malakaviy ishni, magistrlik yoki doktorlik (PhD, DSc) dissertatsiyasini o‘zlashtirgan holda topshirish.

15. Ko‘chirmakashlik - bu har qanday ruxsatsiz yozma (bosma/qo‘lyozma) manbalardan foydalanish, shuningdek, texnik aloqa vositalari yordamida foydalanish, talabaning bilimlarini nazoratdan o‘tkazishda (imtihonlar, test sinovlari yoki boshqa majburiy attestatsiya tadbirlarida) bajargan vazifasining mohiyati to‘g‘risida ma’lumotni ruxsatsiz o‘zlashtirish.

16. Ayni bir ishni ikki marotaba topshirish - talaba yoki xodim tomonidan nazorat ishlari, BMI, magistrlik ishlari, darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy maqola, monografiya va dissertatsiyalarni tayyorlashda turli xil mualliflik ishlari ostida bir xil matnni taqdim etish va boshqalar. Kichik o‘zgarishlar va tuzatishlar, masalan, darslikni yoki monografiyani boshqacha yo‘sinda rasmiylashtirish orqali o‘quv qo‘llanma sifatida qayta tayyorlash va h.k.

Ilgari tayyorlangan matnni muallifning o‘zi kattaroq asarning bir qismi

sifatida ishlatishi ikki marotaba topshirish yoki qayta topshirish deb hisoblanmaydi.

17. Baholarni, ma’lumotlarni, baholanayotgan ishlarni soxtalashtirish:

baholar, topshiriq bo‘yicha javoblarni baholash natijalarini soxtalashtirish;

ma’lumotlarni soxtalashtirish (qo‘shish, kiritish, tuzatish), ya’ni ilmiy-tadqiqot davomida olib borilgan so‘rovnoma, anketa va boshqa usullardagi hisoblash va kuzatish natijalarini soxtalashtirish;

yozma nazorat ishlari bahosini asossiz ko‘tarib qo‘yish yoki bahoni pasaytirish;

boshqa talabaning baholanadigan ishini ataylab qalbakilashtirish yoki buzish;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

18. Javoblarni olish:

imtihon materiallari, test savollari va boshqa materiallar kabi maxfiy (konfidensial) ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish;

baholanadigan ishni bajarish paytida javoblarni berish yoki imtihon topshiriqlariga javoblarni uzatish yoki bu bo‘yicha ruxsat etilmagan elektron qurilmalardan foydalanish;

boshqa talaba, xodim, o‘qituvchi yoki boshqalar yordami bilan baholangan ishni savollari (kazus) yoki imtihon testlarining javoblarini bajarishdan oldin materiallarni qisman yoki to‘liq olish;

tayyor baholanadigan ishlar yoki imtihon javoblarini/testlarni sotib olish yoki sotib olishga ko‘maklashish yoki sotishda boshqa yo‘l bilan yordam berish;

har qanday usul bilan, shu jumladan elektron pochta, kompyuter va boshqa vositalar orqali yuklab olish, baholanadigan ishlar bilan bog‘liq har qanday javoblarni olish;

qog‘ozdan va/yoki elektron tashuvchidan baholangan ish bilan bog‘liq materiallarni olib chiqish yoki o‘qituvchi, institut xodimining kompyuteridan nusxa ko‘chirish;

maxfiy (konfidensial) ma’lumotlarni oldindan kelishuvlarsiz uchinchi shaxslarga tarqatish yoki oshkor qilish.

19. Qalbakilashtirish (kelishuv) - bu boshqa shaxs tomonidan to‘liq yoki qisman o‘z shaxsiy ishi sifatida bajarilgan yozma ishlarni (oraliq yoki yakuniy nazorat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ish, dissertatsiya, darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqa ilmiy ishlarni) yetkazish yoki o‘z ishini boshqa odamga haq evaziga yoki bepul taqdim etish.

20. Yolg‘onchilik - yozma ishlarda muayyan holatlar, voqealar, faktlar to‘g‘risida ma’lumotlarni qasddan adashtirish, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan

axborotlar keltirish.

21. Noto‘g‘ri taqdim etish - soxta topshiriqlar, sertifikatlar va boshqa hujjatlarni topshirish yoki akademik maqsadlarda taqdim etish.

Bunday qoidabuzarliklarga quyidagilar kiradi (mazkur ro‘yxat chegaralanmagan):

o‘zgartirilgan materiallar va ilmiy-tadqiqot natijalari;

uydirma faktlar yoki manbalar;

soxta sertifikatlar;

soxta hujjatlar;

soxta tavsiyanoma va boshqa xatlar;

soxta transkriptlar, diplomlar yoki boshqa ma’lumotlar;

topshiriq sanasi va vaqtini o‘zgartirish;

baho ma’lumoti yoki imtihon materialidagi o‘zgarishlar;

qoniqarsiz deb topilgan ishni o‘zgartirish.

22. Boshqa shaxs sifatida namoyon qilish - imtihonlar, test sinovlari, laboratoriya ishlari, malakaviy imtihonlar yoki boshqa topshiriqlar paytida akademik imtiyozlarni qo‘lga kiritish uchun o‘zini boshqa shaxs sifatida namoyon qilish yoki o‘z o‘rniga boshqa shaxslarni kiritish;

23. Ma’lumotlarni yashirish - aldash yoki akademik imtiyozga ega bo‘lish maqsadida ma’lumotlarni, transkriptlarni yoki boshqa o‘quv hujjatlarini yashirish.

24. To‘siq va to‘sqinlik yaratmoq - adolatsiz akademik yutuqqa erishish uchun boshqalarning ta’lim yoki ilmiy faoliyatiga to‘sqinlik qilish. Bunga o‘quv maqsadlarida ishlatiladigan soxtalashtirilgan ma’lumotlar, fayllar, qo‘lyozmalar yoki boshqa materiallar, ilmiy ishlar, kutubxona jihozlari yoki mol-mulkning shikastlanishi, elektron yoki boshqa materiallar kiradi.

25. Auditoriya mashg‘ulotlari va konsultatsiyalarga to‘sqinlik qilish, xalaqit berish - o‘qituvchi, dekan, murabbiy (tyutor) tomonidan tashkil qilingan dars yoki konsultatsiyani maqsadli ravishda buzishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar.

26. Akademik halollik qoidalarini buzishda muayyan shaxsga yordam berish - boshqa talabaga boshqa darsda topshirilgan vazifani jo‘natish, topshiriq qismlarini takrorlash va o‘zinikidek topshirishga imkon berish.

27. Akademik bilim darajasini olgunga qadar bitiruvchi kurslarning akademik nohalolligi quyidagilarni ham o‘z ichiga oladi:

adolatsiz amaliyot - bitiruv malakaviy amaliyoti o‘tashni e’tiborsiz qoldirish (o‘tamaslik), bitiruv malakaviy ish mavzusiga aloqadorligi bo‘lmagan tashkilotda amaliyotni o‘tash yoki amaliyot natijalariga ko‘ra soxta hujjatlarni taqdim etish;

bitiruv malakaviy ishni yoki magistrlik dissertatsiyani himoya qilish paytida axloqqa zid xatti-harakatlar.

28. Ilmiy-tadqiqotlarda uydirma - tadqiqotchining tadqiqot

o‘tkazmaganligi, balki ma’lumotlarni o‘ylab topganligi yoki yo‘q ma’lumotlarni taqdim etishida namoyon bo‘ladi.

29. Ilmiy tadqiqot ishlarida soxtalashtirish - tadqiqotchining tadqiqot o‘tkazganligini, ammo olingan ma’lumotlarni to‘liq yoki bir qismini o‘z manfaatlari yo‘lida, soxta dalil olish maqsadida o‘zgartirganligini anglatadi.

30. Qo‘lyozmani turli nashrlarga bir vaqtda topshirish - bir qo‘lyozmani bir vaqtning o‘zida bir nechta jurnalga topshirish ilmiy-tadqiqot etikasi qoidalarini buzish deb bahonalanadi. Ushbu holat muharrirlar va taqrizchilarning vaqtini behuda sarflash va bir xil ilmiy natijalarni bir nechta jurnallarda chop etish orqali ilmiy jurnallar obro‘siga putur yetishiga sabab bo‘ladi.

31. Kichik o‘zgarishlar bilan nashr qilish - bir ilmiy xulosa va amaliy natijaga ega bo‘lgan juda o‘xshash maqolalar yoki boshqa ilmiy ishlarni nashr qilish.

32. Mualliflar jamoasini noto‘g‘ri shakllantirish - barcha hammualliflar tadqiqotga katta ilmiy hissa qo‘shishgan va ish natijalari va xulosalarini ishlab chiqishda qatnashgan bo‘lishlari shart. Ishga katta ilmiy hissa qo‘shgan barcha hammualliflar, jumladan, talabalar va magistrlar mualliflar jamoasi tarkibiga kiritilishi, aksincha, ilmiy-tadqiqotga hissa qo‘shmagan shaxslar mualliflar tarkibida ko‘rsatilmaslik kerak.

33. Akademik va ilmiy firibgarlik - xalqaro ko‘rsatkichlarga ko‘ra xodimlarning ilmiy maqolalariga iqtiboslar (“Web of Science”, “Scopus” va “Google Scholar” bazalari bo‘yicha) va ularning ko‘rsatkichlarini soxtalashtirish yoki qalbakilashtirish yoxud ilmiy “vositachilar” orqali sun’iy ravishda oshirish.

34. Akademik halollikni buzish turlari ro‘yxati zarur hollarda to‘ldirilishi mumkin.

35. Plagiatdan qochish bo‘yicha tavsiyalar:

Plagiatga qarshi kurashish nima uchun muhim? Plagiat - bu akademik yaxlitlikni buzish hisoblanadi. Akademik hamjamiyatning barcha a’zolari o‘z ishlari uchun asos bo‘lgan g‘oyalar, so‘zlar va ma’lumotlarning mualliflari oldidagi qarzlarini tan olishlari intellektual halollik tamoyilidir.

Nima uchun plagiatdan qochish kerak? Plagiatdan qochish uchun ko‘p sabablar mavjud. Siz institutga shunchaki boshqalarning fikrini takrorlash uchun emas, balki hech bo‘lmaganda bilim olish va o‘z fikringizni bildirish uchun kelgansiz. Avvaliga o‘z nuqtayi nazaringizni rivojlantirish juda qiyin bo‘lib tuyulishi mumkin va siz boshqalarning dalillarini tushunishga va o‘zlashtirishga harakat qilganingizda, ehtimol siz o‘zingizning ishingizda boshqalarning yozganlarini takrorlashni ko‘rarsiz. Biroq, mualliflik pozitsiyangiz (o‘z nuqtayi nazaringiz)ni rivojlantirishni o‘rganishingiz juda muhimdir. Sizdan asl mutafakkir bo‘lishingiz emas, balki boshqalarning ishini

tanqidiy baholashni o‘rganish, turli dalillarni keltirish va o‘z xulosalaringizni chiqarishda mustaqil bo‘lishingiz kutiladi. Plagiatdan qochishga uringan kishi yuqori sifatli asar yaratishga intiladi. Manbadan foydalanish va iqtibos keltirish tamoyillarini tushunganingizdan so‘ng, plagiatdan saqlanish nisbatan oson bo‘ladi. Bundan tashqari, siz yozma ijodingizning ravshanligi va sifatini yaxshilashning qo‘shimcha afzalliklaridan foydalanasiz. Akademik yozish texnikasini egallash shunchaki amaliy mahorat emas, balki sizning ishingizga ishonch va obro‘-e’tibor bag‘ishlaydigan hamda tahsil olishda intellektual halollik tamoyiliga sodiqligingizni ko‘rsatadigan mahorat ekanligini qadrlash muhimdir.

Agar siz plagiat qilgan deb hisoblansangiz nima bo‘ladi? GDPI imtihonlardagi plagiatni jiddiy masala deb biladi. Voqealarning jiddiyligiga qarab holatlar tekshiriladi va jazolar ballarni ushlab qolishdan tortib institutdan chetlatishgacha bo‘lishi mumkin. Plagiat tasodifiy bo‘lsa ham, bu jazoga olib kelishi mumkin.

Plagiat boshqa mualliflarning asarlaridan foydalanmaslik kerakligini anglatadimi? Aksincha, o‘z ishingizni sohangizdagi intellektual munozaralar bilan boyitishingiz juda muhim. Akademik ishlar deyarli har doim boshqalar tomonidan yozilgan materiallardan foydalanish va muhokama qilishni o‘z ichiga oladi hamda tegishli e’tirof va to‘g‘ri havolalar bilan plagiatdan aniq ajralib turadi. Bilimlar ko‘p yillik izlanishlar, innovatsiyalar va munozaralar natijasida jamlangan holda rivojlanadi. Siz iqtibos keltirayotgan g‘oyalar va ularning mualliflariga ishonch bildirishingiz kerak. Bu nafaqat ularning ishini tan olishga yordam beradi, balki siz o‘z argumentingizni qaysi asosga ko‘ra asoslab berganingizni aniq qilib ko‘rsatish orqali mustahkamlashingizga yordam beradi. Bundan tashqari, yaxshi iqtibos keltirish amaliyoti o‘quvchiga havolalaringizni kuzatish yoki sharhingizning to‘g‘riligini tekshirish imkoniyatini beradi.

V. Turnitin dasturiy ta’minotiga oid qoidalar

36. **Turnitin** - taqdim etilgan ilmiy ishlarni mavjud ishlar, Internet manbalari, akademik jurnallar, kitoblar va ulkan ma’lumotlar bazasi bilan taqqoslaydigan dasturiy ta’minotdir. GDPIda topshirilgan barcha **yozma topshiriqlar** (ilmiy-tadqiqot ishlari, kurs ishlari, loyihaga asoslangan ishlar va boshq.) turnitin orqali **o‘xshashlik ko‘rsatkichlari** va **sun’iy intellekt (AI)** uchun tekshiriladi.

37. Barcha ilmiy-tadqiqot ishlari **LMS** platformasi (talaba tomonidan) hamda **Turnitin** dasturiy ta’minotiga (talaba yoki o‘qituvchi tomonidan) topshiriladi.

38. “**O‘xshashlikning (similarity) maqbul bahosi”** yo‘q, chunki har bir holat (ilmiy-tadqiqot ishlari) o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘rib chiqilishi kerak.

39. Qaysi holatlarda ilmiy-tadqiqot ishi plagiat deb hisoblanmaydi:

ko‘chirma bo‘lmagan so‘zlar bilan ifodalangan, iqtibos keltirilgan, havolalar bilan tasdiqlangan materiallar;

havolalar, (**references**) garchi Turnitin dasturiy ta’minoti tomonidan plagiat sifatida ta’kidlangan bo‘lsa ham;

matn ichidagi iqtiboslar, (**in-text citation**) garchi Turnitin dasturiy ta’minoti tomonidan plagiat sifatida ta’kidlangan bo‘lsa ham;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri olingan iqtiboslar (**direct quotations**), matn ichida va havolalarda xatosiz ko‘rsatilgan bo‘lsa;

40. Qaysi holatlarda ilmiy-tadqiqot ishi plagiat deb hisoblanadi?

ko‘chirma bo‘lmagan so‘zlar bilan ifodalangan, ammo iqtibos keltirilmagan va havolalar keltirilmagan materiallar;

mozaykali plagiat (**mosaic plagiarism**) - bunda nusxa ko‘chirishda faqatgina ayrim so‘zlarnigina sinonimiga o‘zgartirish kiritib joylash;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri plagiat - bunda tadqiqotchi hech qanday o‘zgartirishsiz ko‘chirib, matnga joylashi tushuniladi;

matn ichidagi iqtiboslar va havolalarda berilgan adabiyotlar o‘rtasida farq bo‘lsa (moslik bo‘lmasa)

ikki talaba/tadqiqotchi tomonidan bir xil ish topshirilishi (bunday holatda ikkala talaba/tadqiqotchi ham “0” ball bilan baholanishi shart);

o‘z-o‘ziga plagiat (**self-plagiarism**) - turli xil topshiriqlar uchun bir xil maqola yokida ilmiy-tadqiqot ishini qayta-qayta topshirish;

bir tildan boshqa tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ya’ni ko‘chirma bo‘lmagan so‘zlar bilan sharhlamasdan, matn ichida to‘g‘ri ko‘rsatilgan iqtibos va havolalarsiz tarjima qilish.

41. Agar yuqorida qayd etilgan holatlar (ilmiy-tadqidot ishlari) aniqlansa, o‘xshashlik balli (foizi) past talaba/tadqiqotchilar “0” ball bilan baholanishi kerak.

42. Haqiqiy bo‘lmagan ma’lumotlar yaratish (**fabrication**) - bu materiallarni “ixtiro qilish” dan iborat:

iqtibos va havolalarga mavjud bo‘lmagan mualliflar va manbalarni qo‘shish;

ilmiy-tadqiqot ishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yo‘q joydan statistik ma’lumotlarni yaratish;

mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni shakllantirish.

43. Ilmiy-tadqiqot ishlarini qalbakilashtirish - bu eng og‘ir akademik jinoyatlardan biri bo‘lganligi sababli, soxta materiallardan iborat ilmiy-tadqiqot ishi ham “0” ball bilan baholanishi shart.

44. **Sun’iy intellekt (AI) qo‘llanilganligi**: talaba/tadqiqotchilarning barcha ilmiy ishlari Turnitin dasturiy ta’minot tomonidan nafaqat o‘xshashlik

(similarity), balki sun’iy intellektdan (AI) foydalanilganligini aniqlash uchun ham tekshiriladi.

45. Qaysi holatlarda sun’iy intellektdan (AI) foydalangan deb hisoblanadi?

sun’iy intellekt (AI) chatbotlaridan (Quilbot, Poe, Chatgpt va boshq.) foydalanilsa;

talaba/tadqiqotchi o‘rniga gaplarni ifodalab va xulosalab beruvchi dasturiy ta’minotlardan (Quilbot, Chatgpt, MyEssayWriter.ai va boshq.) foydalanilsa va ulardan nusxa ko‘chirilsa;

tarjima qiluvchi ilova va boshqa shunga o‘xshash vositalardan (Google translate, Microsoft Bing va boshq.) foydalanilsa (agar asar bir tildan boshqa tilga tarjima qilinib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilgan bo‘lsa);

jumlalar tuzilishini o‘zgartirib yuboradigan grammatik tekshiruvlarni amalga oshiradigan ilova va dasturiy ta’minotlardan (Grammarly, Narrato va boshq.) foydalanilsa.

46. Sun’iy intellekt (AI) dan foydalanilganlik aniqlansa, qanday choralar ko‘riladi:

Agar Turnitin dasturiy ta’minoti ilmiy-tadqiqot ishini sun’iy intellekt (AI) bajargan deb aniqlasa, GDPI kengashi talaba/tadqiqotchiga og‘zaki imtihon belgilaydi va ishni halolligini tekshiradi.

Kengash quyidagi a’zolardan iborat:

- yo‘nalish rahbari,
- ilmiy ish rahbari,
- modul rahbari,
- ma’ruza/seminar o‘qituvchisi,
- imtihon bo‘limi mutaxassisi,
- o‘quv bo‘limi mutaxassisi.

Agar talaba/tadqiqotchi o‘z ishini himoya qilishga muvaffaq bo‘lsa, ilmiy-tadqiqot ishi kerakli tartibda baholanadi. Agar talaba/tadqiqotchi o‘z ilmiy ishini sun’iy intellekt (AI) tomonidan yozilmaganligini isbotlay olmasa, ish ”0” ball bilan baholanadi.

47. Agar ilmiy-tadqiqot ishida plagiat matnni yashirishga yoki dasturiy ta’minotni aldashga urinishlar bo‘lsa, **Turnitin dasturida bayroqlar (ilova 1 ga qaralsin)** paydo bo‘ladi:

Ular quyidagilar:

- yashirin belgilardan foydalanish;
- kirill/lotin yoki yana boshqa alifbolardan foydalanish (bitta jumlada turli xil alifbo harflarini aralashtirib matn yaratish);
- yuqorida ko‘rsatilmagan boshqa usullardan foydalangan holda texnik jihatdan aldashga urinish.

48. Talaba/Tadqiqotchi ilmiy ishini tekshirish davomida **“bayroqlar”** mavjud bo‘lsa, talaba/tadqiqotchi olishi mumkin bo‘lgan maksimal ball - 60% deb belgilanishi shart.

49. Turnitindan foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot va yordam olish uchun talaba/tadqiqotchilar quyidagi havolaga o‘tishlari mumkin:
https://help.turnitin.com/feedback-studio/turnitin-website/student/student-category.htm

VI. O‘quv-uslubiy ishlarda akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi

50. Talaba nazorat va akademik ishlarni tayyorlashda, professor-o‘qituvchilar bilan muloqot va nazorat turlarini topshirishda institutning Odob-axloq qoidalariga va mazkur Kodeksda belgilangan akademik halollik talablariga rioya qilishi shart.

51. Professor-o‘qituvchini o‘quv-uslubiy jarayondagi asosiy vazifasi yaxshi bilim darajasiga ega bo‘lish, bilganlarini haqqoniy va aniq shaklda yetkazib berish, axloq jihatdan taqlid uchun namuna bo‘lish, talabalar bilan ularning tahsil olishi va o‘zlarini axloq talablariga mos tutishlarini rag‘batlantirishga qaratilgan munosabatlarni o‘rnatishdan iborat.

52. Professor-o‘qituvchi o‘quv-uslubiy jarayonlarda akademik halollikning quyidagi qoidalariga rioya qilishi zarur:

akademik vakolatga, ya’ni fan sohasi bo‘yicha tayyorgarlikka hamda o‘qitayotgan modulga oid ilmiy-tadqiqotlar va zamonaviy qarashlar bo‘yicha nazariy hamda amaliy bilimga ega bo‘lgan modullar bo‘yichagina dars berish;

barcha tahsil oluvchilarga o‘z akademik salohiyatini maksimal darajada to‘liq rivojlantirish uchun yordam berish; ularni ta’lim olishga, o‘qilgan ma’lumotlar va ma’ruzalarga tanqidiy yondashishga, o‘rganganlari ustida mulohaza yuritishga, o‘rni kelganda o‘qituvchi tomonidan berilgan ma’lumotga qarshi chiqishni rag‘batlantirish;

professor-o‘qituvchilar va boshqa talabalar bilan ilmiy-tadqiqot loyihalarida, tadbirlarda ishtirok etish;

talabalarga bahsli axborotlarni “haqiqat” sifatida taqdim etishdan ko‘ra ularga ilmiy munozaralarning tabiatini tushunish va unda ishtirok etish madaniyatini shakllantirishga ko‘maklashish;

dars mashg‘ulotlarida berilayotgan axborot va ma’lumotlar dars mazmuni hamda modul xususiyatiga mos kelishi kerak. Professor-o‘qituvchi darsga “vaqt o‘tkazish” uchun emas, bilim va ko‘nikma berish uchun kirish;

talabalarning ongida chuqur ildiz otgan qadriyatlarga zid kelishi mumkin bo‘lgan vazifa va topshiriqlarni qo‘llashda ehtiyot bo‘lishi zarur. Professor-o‘qituvchi talaba shaxsiy sabablariga ko‘ra muayyan topshiriqqa e’tiroz bildirgan taqdirda muqobil vazifalarni berishga tayyor bo‘lish;

talabalar bilan muloqotda xushmuomalalik va professionallik qoidalariga

rioya qilishi hamda axloqqa zid xatti-harakatlarga murosasizlikni namoyon qilish orqali o‘zlari shaxsiy halollik namunasi bo‘lish;

talabalar bilan muloqotda va uni baholashda adolat tamoyiliga ustunlik berish, barcha tahsil oluvchilarga nisbatan adolatli bo‘lishga intilish;

boshqalarni tinglashga, shaxsiy fikr va qarashlardagi farqlarni tan olgan holda o‘z nuqtani nazarini aniq bayon etishga da’vat etish;

auditoriyada talabalar ochiq muloqot qila oladigan, o‘z fikrini erkin bayon etadigan va aqlan rivojlanadigan xavfsiz muhit yaratishga harakat qilish; talabalarning baholarini va ularga oid shaxsiy ma’lumotlarni sir saqlash bilan maxfiylik tamoyiliga rioya qilish orqali talabalarga bo‘lgan hurmatini namoyish etish;

o‘quv modulining maqsadi va talablarini to‘liq bayon etish hamda baholashning aniq mezonlari haqida batafsil ma’lumot berish;

muallifligida o‘quv-uslubiy ishlar (darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, modul kontentlari va boshq.)ni tayyorlashda ushbu Kodeks talablariga qat’iy rioya qilish;

muallifligida o‘quv-uslubiy ishlarni chop etishni ilmiy unvon olish uchun mezonlarni bajarish vositasi emas, balki talabalarga sifatli bilim berish va ularni zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash sifatida belgilash;

talabalarning baholashda birdek yaxshi natijaga erishish uchun barchaga teng imkoniyat beruvchi xolis usul va vositalardan foydalanish va institutning boshqa hujjatlarida belgilab berilgan talablarga rioya qilish.

53. Talabalar o‘quv jarayonida nazorat turlarini (joriy, oraliq va yakuniy) topshirishda va GDPI xodimlari hamda boshqa talabalar bilan munosabatlarda ushbu Kodeksning 3-bobi qoidalariga va institutning boshqa hujjatlariga rioya qilishlari zarur.

54. O‘quv jarayonida nazorat turlarini (oraliq va yakuniy) topshirishda topshirilayotgan yozma ishlarning originalligi (o‘ziga xosligi) har bir holatni o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘rib chiqilishi talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishning originalligi (o‘ziga xosligi) bakalavr darajasi uchun kamida 70% va magistr darajasi uchun dissertatsiya ishining 80% bo‘lishi zarur.

Ushbu talablarga rioya qilinmagan ishlar ilmiy rahbar va taqrizchilar tomonidan keyingi bosqichga va himoyaga tavsiya qilinmasligi zarur hamda ushbu ish Akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasini buzish sifatida baholanishi mumkin.

55. BMI va magistrlik dissertatsiya ishi bo‘yicha **ilmiy rahbar** (keyingi o‘rinlarda - ilmiy rahbar) ushbu Kodeks qoidalariga rioya qilishi va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi zarur.

Ilmiy rahbar fan va ta’limga daxldor bo‘lgan tamoyillardan xabardor bo‘lishi va ularga rioya qilishi zarur. Jumladan,

talaba bilan shaxsiy munosabatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

talabaning ishini baholashda o‘zining darajasiga nisbatda baholash yoki darajasi yuqori bo‘lgan topshiriq bermaslik;

o‘zi ilmiy rahbar bo‘lgan ishlarni o‘zlashtirmaslik;

talaba va ilmiy jamoatchilik oldida halol va ochiq bo‘lish;

manfaatlar to‘qnashuvi sababli ilmiy rahbar bo‘lishdan voz kechishi yoki o‘zini o‘zi rad etishi;

tamagirlik qilish yoki ishni o‘zi yozib berishni taklif qilmasligi;

ishni maxsus elektron antiplagiat (**Turnitin**) dasturlaridan o‘tkazishi;

talabalar bilan har qanday munosabatda shaxsiy halollikni yuqori darajada saqlashlari lozim.

56. Xodimlar o‘quv-uslubiy ishlar (darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, modul kontentlari va boshq.)ni tayyorlashda va chop etishda ushbu Kodeks qoidalariga rioya qilishi zarur.

Muallif moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning ilmiy-tadqiqot natijalariga bo‘lgan ehtimoliy ta’sirini o‘quvchi baholay olishi uchun tayyorlash va chop etish uchun berilgan barcha moliyaviy yordamlar, grantlar, ushbu o‘quv-uslubiy ishni yaratishga moliyaviy ko‘mak bergan jismoniy yoki yuridik shaxslar haqidagi ma’lumotlarni oshkor ko‘rsatishi zarur.

O‘quv-uslubiy ishlar (darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, modul kontentlari va boshq.)ning originalligi (o‘ziga xosligi) kamida 75% ni tashkil etishi talab etiladi.

57. O‘quv-uslubiy ishlar (darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, modul kontentlari va boshq.) tayyorlash va chop etishda ushbu Kodeksning 13, 14, 18, 19, 27, 28, 29, 31-bandlarida belgilangan talablarga qat’iy rioya qilishlari zarur.

58. BMI va magistrlik dissertatsiya ishi va o‘quv-uslubiy ishlar (darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va boshq.)ga **taqrizchi** sifatida belgilangan shaxs quyidagi etika qoidalariga rioya qilishi zarur:

ishni maxsus elektron antiplagiat (**Turnitin**) dasturlaridan o‘tkazishi;

o‘zi taqrizchi bo‘lgan ishlarni o‘zlashtirmasligi;

taqriz berilayotgan ishga nisbatan mas’uliyatli, halol va ochiq bo‘lishi;

taqrizchi ishni shaxsiy adovatdan xoli tarzda bosiq va professional baho berishi kerak;

taqrizchi o‘z bahosini batafsil izohlashi, muallif uchun manfaatli bo‘lgan konstruktiv tanqid va tavsiyalarni batafsil asoslab berishi lozim;

umumiy va tushunarsiz, ishning mazmuniga ta’sir ko‘rsatmaydigan kamchiliklar, texnik sabablarni asos sifatida ko‘rsatib ishni tavsiya qilmasligi;

o‘z gipotezasi yoki ilmiy natijalariga to‘g‘ri kelish-kelmasligidan qat’i nazar ilmiy-tadqiqot ishiga xolis baho berishi;

taqrizda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni soxtalashtirmaslik, chalkashlikka sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan asoslarni ko‘rsatmasligi zarur;

taqrizchi taqrizni belgilangan muddatda taqdim etishi, kechikish ehtimoli bo‘lgan taqdirda bu haqida tegishli mas’ulni xabardor qilishi shart;

taqrizchi axloqqa zid, shubhali, noprofessional har qanday element bo‘yicha Akademik kengashga xabar berishga majbur.

59. Akademik kengash yoki Ilmiy-tadqiqot etikasi kengashining qarori bilan BMI va magistrlik dissertatsiya ishi va o‘quv-uslubiy ishlar (darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va boshq.)ga taqrizchi anonim tarzda belgilanishi mumkin.

VII. Ilmiy-tadqiqot ishlarida akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi

60. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda Kodeksning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

mualliflikni to‘g‘ri belgilash – mualliflik huquqi tamoyillariga rioya qilgan holda, ma’lum ilmiy ishlarga ijodiy hissa qo‘shgan ilmiy faoliyat subyektlari muallif sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy-tadqiqotga faqat hissa qo‘shgan shaxslargina tadqiqot ishlarining hammualliflari sifatida ko‘rsatilishi kerak. Hammualliflar orasida ilmiy-tadqiqot da qatnashmagan shaxslarni ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmaydi;

plagiatga yo‘l qo‘yilmasligi, havolalarni to‘g‘ri va to‘liq taqdim etish;

muhofazalangan ijodiy faoliyat natijalarini o‘zlashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi;

ilmiy yangilikka e’tibor qaratish;

ilmiy polemika (munozara)dagi to‘g‘rilik, taqrizchi, sharhlovchi va tadqiqotchini haqorat qilish yoki kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik;

tajribalar o‘tkazishda, ilmiy nazariyalarni shakllantirishda ilmiy vijdonlilik;

shaxsiy kasbiy javobgarlikni anglash;

tamagirlik va pul evaziga ilmiy ishlarni yozib bermaslik; salbiy oqibatlar uchun axloqiy javobgarlikni anglash.

61. Quyidagilar ilmiy-tadqiqotda odob-axloq qoidalari (etika)ning buzilishi hisoblanadi:

plagiat, soxtalashtirish yoki qalbaki ma’lumotlar yaratish;

mualliflikni yoki ilmiy ishlarga hissa qo‘shganlikni tan olmaslik;

mualliflik huquqi obyektlari yoki maxfiy (konfidensial) qo‘lyozmalardagi

ma’lumotlar yoki shaxsiy suhbatlardan tegishli ruxsatsiz foydalanish;

arxiv hujjatlaridan foydalanish qoidalarini buzgan holda arxiv materiallaridan foydalanish;

ataylab yolg‘on ma’lumotlarni taqdim etish yoki vijdonsiz vositachilarga murojaat qilish orqali xalqaro ko‘rsatkichlarga ko‘ra maqolaning “ilmiy darajasini oshirish”;

ilmiy-tadqiqot ishida tahlil qilinmagan hamda empirik (amaliy) jihatdan o‘z isbotini topmagan takliflarni ishning xulosa qismida bayon qilish;

mazkur Kodeksning 4-bobida nazarda tutilgan ilmiy-tadqiqot etikasini buzish shakllari;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, GDPI Ustavi, o‘rnatilgan ichki tartib-qoidalarga va boshqa lokal hujjatlarga rioya qilmaslik;

ilmiy tadqiqotlar doirasidagi boshqa turdagi faoliyat ham Ilmiy-tadqiqot etikasi kengashi tomonidan axloq qoidalarining buzilishi deb tan olinishi mumkin.

62. Ilmiy-tadqiqot ishlarining originalligi (o‘ziga xosligi) (ilmiy maqolalar, monografiyalar, PhD va DSs dissertatsiyalari) kamida 85%ni tashkil qilishi hamda iqtiboslarning umumiy hajmidan o‘zining ishlariga bo‘lgan iqtiboslari 15% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Kafedralar tomonidan BMI va magistrlik ishlari hamda PhD va DSs dissertatsiyalari dastlabki muhokamalarida maxsus elektron antiplagiat (Turnitin) dasturlari orqali tekshirishdan o‘tkazilishi shart.

Akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi talablariga rioya qilinmagan ishlar keyingi bosqichga tavsiya qilinmasligi zarur.

Ushbu talabga rioya qilinmagan va mazkur Kodeks talablariga mos kelmaydigan ishlarni keyingi bosqichga tavsiya qilganlik uchun kafedra mudiri, ilmiy rahbar, taqrizchilar hamda Ilmiy seminar raisining javobgarligi Akademik kengash va Ilmiy-tadqiqot etikasi kengashi majlislarida ko‘rib chiqiladi.

63. **Tadqiqotchi (muallif)ning ilmiy-tadqiqot etikasi** bo‘yicha majburiyatlari ushbu Kodeksning 12-bandida ko‘rsatilgan bo‘lib, tadqiqotchi ushbu majburiyatlarni va ushbu Kodeks talablarini bajarishi shart.

Shu bilan birga, muallifning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi axloqiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

muallif (yoki mualliflar jamoasi) ilmiy-tadqiqotlar natijalarining yangiligi va ishonchliligi uchun birlamchi javobgar hisoblanadi;

muallif(lar) maqolada tavsiflangan ilmiy-tadqiqotning originalligini kafolatlashi zarur. Boshqa mualliflarning ishi yoki so‘zlari ishlatilsa, manbaga havolalar yoki iqtiboslar ko‘rsatilishi shart. Juda ham ko‘p iqtiboslar keltirish axloqqa zidligini unutmang, har qanday shakldagi plagiatga esa mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi;

muallif(lar) ommaviy e’lon qilish uchun mo‘ljallanmagan ma’lumotlardan foydalanishdan ehtiyot bo‘lishi kerak;

muallif(lar) boshqa ishlardagi iqtiboslar va havolalarni to‘g‘ri va aniq shakllantirishi kerak. Barcha holatlarda asl manbaga havola ko‘rsatilishi kerak;

muallif(lar) ilmiy izlanish natijalarining haqqoniyligiga javob beradi. Oldindan xato qilingan yoki qalbakilashtirilgan fikrlar berish nojoizdir. Chop etilgan materiallarning muallif(lar)i keltirilgan faktlar, iqtiboslar, statistik va boshqa ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgardir;

muallif(lar) taqrizchining savollariga professional va tezkor javob berishi, zarur tushuntirishlar va qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etishi kerak; muallif(lar) ilmiy-tadqiqotni moliyalashtirishning barcha manbalarini, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita moliyaviy yordam, asbob-uskunalar yoki materiallar bilan ta’minlash va boshqa turdagi moliyaviy yordam manbalarini ko‘rsatishi kerak;

muallif(lar) boshqa nashrga taqdim etilgan va ko‘rib chiqilayotgan qo‘lyozmani taqdim etmasligi kerak;

agar muallif(lar) ilmiy-tadqiqotni ko‘rib chiqish bosqichida yoki nashr etilgandan keyin jiddiy xatolar yoki noaniqliklarni aniqlasa, imkon qadar tezroq tahririyatni va ilmiy jamoatchilikni xabardor qilishlari kerak;

muallif(lar) uchinchi tomon ilmiy-tadqiqotlarini tanqid qilish yoki sharhlashda axloqiy me’yorlarga rioya qilishlari kerak;

muallif(lar) o‘z qo‘lyozmalarining natijalari yoki talqiniga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan har qanday muhim manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilishlari kerak.

64. Taqdim etilgan ishning konsepsiyasi, loyihasi, bajarilishi yoki interpretatsiyasiga munosib hissa qo‘shgan shaxslar maqola mualliflari soniga kiradi.

Mualliflik darajasi, obro‘si yoki ta’siri tufayli, shuningdek, shaxsiy munosabatlari yoki to‘lov evaziga ayrim shaxslar mualliflar ro‘yxatiga kiritilishi holatlarida mualliflik mustasno etilishi kerak. Agar davom etayotgan ilmiy-tadqiqotning muayyan bosqichlarida ishtirok etgan boshqa shaxslar bo‘lsa, ular maqola matnida qayd etilishi mumkin.

Muallif barcha hammualliflar maqolaning yakuniy shaklini o‘qib chiqishlari va ma’qullaganliklarini hamda uni nashr etishga rozi bo‘lishlarini ta’minlashi kerak.

65. **Ilmiy rahbar (maslahatchi)** etib ilmiy-tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha ilmiy maqolalar chop etgan, ilmiy-tadqiqot mavzusi bo‘yicha malakali mutaxassis sifatida tanilgan hamda izlanuvchiga ilmiy va o‘quv-metodik yordam ko‘rsatish maqsadida ushbu sohada ilmiy rahbarlik qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs tayinlanishi zarur.

Ilmiy rahbar akademik savodxonlik va halollik namunasi bo‘lishi kerak. Ilmiy rahbar tanqid, maslahat va takliflarga ochiq bo‘lishi kerak. Ilmiy rahbar o‘zi rahbarlik qilayotgan tadqiqotchining taqrizchisi bo‘la olmaydi.

Ilmiy rahbar (maslahatchi) faoliyatidagi axloqiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

tadqiqotchining mavzuni ko‘rib chiqishga tayyorgarlik darajasini belgilash, mavzu tanlashda tadqiqotchini to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirish;

konsultatsiyalar o‘tkazish va tadqiqotchi tomonidan dissertatsiya ustida ishlashning butun jarayonini to‘liq tushunishga erishish;

ish rejasini tuzishda yordam berish, shu jumladan, ish uchun vazifalar va maqsadlarni belgilash;

individual rejaning aniq bajarilishini nazorat qilish, jumladan, maqsadlarni amalga oshirish muddatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

tadqiqotchi bilan ishlashda shaxsiy munosabatlar asosida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilmaslik;

ilmiy-tadqiqot ishiga xulosa berishdan avval ishni maxsus elektron antiplagiat (**Turnitin**) dasturlaridan o‘tkazib, mazkur Kodeks talablariga rioya qilinishini ta’minlash; hammualliflik – har bir hammuallifning ishga qo‘shgan hissasi nashr mazmuni uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Ilmiy rahbar ta’lim oluvchi (talaba, tadqiqotchi)ning intellektual mulki hisoblangan ilmiy ishiga umuman hissa qo‘shmagan holda hammuallif bo‘lishni talab qilishga haqli emas;

tayyor ilmiy ishlar materiallarini turli shakllardagi mukofot olish evaziga yoki shaxsiy manfaatdorlik maqsadida mukofot (haq) olmasdan tarqatish, uchinchi shaxslarga taqdim qilish taqiqlanadi;

ta’lim oluvchi (talaba, tadqiqotchi)ga nisbatan xolislik – rahbarning fikr-mulohazalari va tavsiyalari ishning ilmiy saviyasini oshirishga qaratilgan obyektiv va asosli bo‘lishi kerak;

rahbar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun maqolalardan/tugallangan ishdan nusxalar olish taqiqlanadi;

himoyadan o‘tkazishning barcha bosqichlarida taqrizchi (opponent)lar yoki boshqa shaxslarga ilmiy rahbarligidagi tadqiqotchining ishiga ijobiy baho berish yoki yoqlab ovoz berishni iltimos qilish yoxud muhokama ishtirokchilariga avvaldan tadqiqotchiga ma’lum bo‘lgan savollarni berishni iltimos qilishi taqiqlanadi;himoya jarayonining barcha bosqichlarida taqrizchilar, opponentlar, yetakchi tashkilotni belgilash jarayonida Ilmiy kengashga ta’sir ko‘rsatish va iltimoslar qilish taqiqlanadi.

66. Ilmiy rahbar xulosasi ilmiy rahbar tomonidan shaxsan yozilishi va imzolanishi kerak. Ilmiy rahbar xulosasida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi shart:

dissertatsiya mavzusining dolzarbligi haqida;

ishda bayon etilgan ilmiy qoidalar, xulosalar va tavsiyalarning ilmiy yangiligi, asosliligi va ishonchliligi to‘g‘risida;

olingan natijalarning amaliy ahamiyati haqida;

natijalarning fan uchun ahamiyati haqida (adabiyotlar, manbalarni tahlil qilish, aniq usullarni qo‘llash va boshqalar);

dissertatsiya ilmiy-tadqiqoti natijalari ekspertizadan o‘tkaziladigan jurnallarda nashr etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

ishning rasmiylashtirish talablariga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosa.

67. Ilmiy-tadqiqot doirasida nashr etilgan barcha maqolalar va materiallar quyidagi tamoyillarga muvofiq tashkil etilgan majburiy ekspertizadan o‘tkaziladi: ochiq, anonim yoki ikki tomonlama anonim sharhlash.

Taqrizchi (rasmiy opponent) faoliyatida ilmiy-tadqiqot etikasi qoidalari:

ilmiy-tadqiqot ishiga taqriz berishdan avval ishni maxsus elektron antiplagiat (**Turnitin**) dasturlaridan o‘tkazib, mazkur Kodeks talablariga rioya qilinishini ta’minlashi zarur;

mualliflik huquqi materiallarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazishda xolislik, xususan, ishni maxfiy (konfidensial) hujjat sifatida ko‘rib chiqish, tanishib chiqish yoki muhokama qilish uchun ishni vakolati bo‘lmagan uchinchi shaxslarga berish taqiqlanadi;

taqriz berish jarayonida olingan ma’lumotlar yoki g‘oyalarning maxfiyligini saqlash, ulardan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik, qo‘lyozma va sharhning hech qanday tafsilotlarini oshkor qilmaslik;

baholanayotgan ishning boshqa har qanday ilmiy ish bilan ahamiyatli yoki qisman o‘xshashligiga, shuningdek ushbu yoki boshqa mualliflarning ilgari nashr etilgan ishlarida qayd etilgan ma’lumotlar, xulosalar yoki dalillarga havolalar yo‘qligi faktlariga e’tibor qaratish;

Ilmiy kengash kotibi va boshqa vakolatli shaxslardan tashqari hech kim bilan taqriz uchun taqdim etilgan ishni muhokama qilmaslik va taqdim etilgan materiallarni tarqatmaslik;

taqrizchining fikr-mulohazalari va takliflari ishning ilmiy va uslubiy darajasini oshirishga qaratilgan, xolis va asosli bo‘lishi lozim;

taqrizda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni soxtalashtirmaslik, chalkashlikka sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan asoslarni ko‘rsatmasligi zarur;

ko‘rib chiqish jarayonida olingan materiallar va g‘oyalardan o‘z nomidan yoki har qanday shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanmaslik;

taqrizchi taqrizni belgilangan muddatda taqdim etishi, kechikish ehtimoli bo‘lgan taqdirda bu haqida tegishli mas’ulni xabardor qilishi shart;

o‘z shaxsiy ehtiyojlari uchun ishdan nusxalar olish taqiqlanadi;

ilmiy ish nashr etilishidan oldin uning mazmuniga oid materiallardan o‘z manfaatlari uchun foydalanish taqiqlanadi;

taqrizchi mavzu yoki boshqa belgilar bo‘yicha ko‘rib chiqilayotgan ilmiy

ish yoki uning bir qismining muallifi bo‘lishi mumkinligini taxmin qilsa, ilmiy seminar, kengash yoki tahririyatning ruxsati bilan muallif bilan bevosita bog‘lanishi mumkin;

ishni o‘rganish jarayonida ilmiy-tadqiqot etikasi buzilishi bo‘yicha barcha holatlar, shuningdek shubhali, noprofessional har qanday element bo‘yicha Ilmiy-tadqiqot etikasi kengashiga xabar berishga majbur.

Taqdim etilgan ilmiy ishni baholash uchun o‘zini yetarli darajada malakaga ega emas, deb hisoblagan yoki xolis bo‘la olmaydigan taqrizchi, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvi yuz bergan taqdirda, bu haqda uni ushbu ishni ko‘rib chiqish jarayonidan chetlashtirish iltimosi bilan xabar berishi shart.

68. Opponent taqrizni boshqa shaxslarning yordamisiz shaxsan yozishi kerak. Ilmiy taqriz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

ilmiy ish mavzusi va muallifi to‘g‘risida (taqrizchi oshkor qilinmagan taqdirda o‘zi haqida) aniq va qisqa ma’lumot berish;

tanlangan mavzuning dolzarbligiga baho berish;

tanlangan mavzuning dolzarbligi, dissertatsiyada keltirilgan ilmiy tafsilotga qisqacha baho berish;

ilmiy-tadqiqotning asosiy natijalari, xulosa hamda amaliy va nazariy tavsiyalar qay darajada asoslanganligi va yangiligini baholash;

dissertatsiyaning unga qo‘yilgan talablarga muvofiqligini aniqlash;

umumiy xulosalarni ishonchli dalillar va tegishli havolalar bilan tasdiqlash, tanqidiy fikrlarni aniq bayon etish;

ilmiy-tadqiqotning ijobiy va salbiy tomonlarini aniq va qisqa tavsiflash;

kamsituvchi shaxsiy mulohazalar yoki asossiz ayblovlardan saqlanish;

ilmiy ishni nashrga, keyingi bosqichga yoki ommaviy himoyaga tavsiya qilish haqida xulosa berish.

Ilmiy taqriz hajmi odatda 4000 belgidan oshmasligi tavsiya etiladi.

69. O‘z faoliyatida **muharrir** mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarni nashr etish uchun javobgardir, bu esa ilmiy-tadqiqot etikasining quyidagi asosiy qoidalariga rioya qilish zarurligini taqozo etadi:

muharrir mualliflarning irqi, jinsi, diniy e’tiqodi, kelib chiqishi, fuqaroligi, ijtimoiy mavqeyi yoki siyosiy imtiyozlaridan qat’i nazar, qo‘lyozmalarning intellektual mazmunini baholashi kerak;

nashr qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishda muharrir ma’lumotlarning ishonchliligini va ko‘rib chiqilayotgan ishning ilmiy ahamiyatini hisobga oladi;

muharrir unga taqdim etilgan qo‘lyozmalarda mavjud nashr etilmagan ma’lumotlardan shaxsiy maqsadlarda foydalanilmasligi yoki muallifning yozma roziligisiz uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Tahrirlash jarayonida olingan va olinishi mumkin bo‘lgan foyda bilan bog‘liq ma’lumotlar yoki g‘oyalar maxfiy saqlanishi va shaxsiy manfaatlar uchun ishlatilmasligi kerak;

tahrirlovchi ma’lumotni plagiat deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, uni nashr etishga ruxsat bermasligi kerak;

muharrir nashriyot bilan birgalikda ko‘rib chiqilgan qo‘lyozmalar yoki nashr etilgan materiallar yuzasidan javobsiz da’volarni qoldirmasligi, ziddiyatli vaziyat aniqlansa, buzilgan huquqlarni tiklash uchun barcha zarur choralarni ko‘rishi kerak;

agar tahririyatning barcha talablariga javob beradigan nashrga tayyor boshqa mualliflarning asarlari mavjud bo‘lsa, muharrir nashriyot bilan birgalikda bir muallifning asarlarini bir ilmiy jurnalning ketma-ket ikki yoki undan ortiq sonida nashr etishga ruxsat bermasligi kerak;

to‘rt nafardan ortiq muallif ishtirokidagi maqolalarni chop etishga ruxsat bermasligi tavsiya qilinadi.

70. Nashriyot o‘z faoliyatida mualliflik huquqiga oid asarlarni nashr etish uchun javobgardir, bu esa quyidagi asosiy tamoyillar va tartiblarga rioya qilishni talab qiladi:

muharrirlar, tahrir hay’ati (tahririyat hay’ati), taqrizchilar, mualliflar tomonidan axloqiy me’yorlarni amalga oshirishga ko‘maklashish;

nashrlar mualliflaridan olingan ma’lumotlar va har qanday ma’lumotlar e’lon qilinmaguncha maxfiyligini ta’minlash;

intellektual mulk va mualliflik huquqini himoya qilish;

zaruratga ko‘ra tuzatishlar, tushuntirishlar, raddiyalar va uzrlarni e’lon qilish;

adolatsiz, sifatsiz maqolalarni nashr qilishni rad qilish;

ilmiy nashrning o‘z vaqtida chop etilishini ta’minlash.

71. Axloq qoidalarini buzish holatlarining oldini olish uchun ilmiy-tadqiqot yoki uning natijalarini aniqlash jarayonida ishtirok etayotgan barcha tomonlar manfaatlar to‘qnashuvi holatini istisno qilish kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi muallif, taqrizchi yoki institut harakatlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy, ilmiy yoki shaxsiy munosabatlar bo‘lganda yuzaga keladi. Ikki tomonlama majburiyatlar, raqobatdosh manfaatlar yoki raqobatdosh sodiqlik tushunchasiga kiradigan munosabatlar chiqarib tashlanishi kerak.

VIII. Ilmiy-tadqiqot ishi turlari

72. **Ilmiy maqola -** muayyan soha bo‘yicha mantiqiy izchillikda tayyorlangan ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag‘ishlangan va unda berilgan muammolar atroflicha tahlil qilinib, ilmiy-nazariy hamda amaliy yechim (xulosa) lar keltiriladigan ilmiy-tadqiqot ishi. Ilmiy-tadqiqot materiallarini va ularning tahlilini maqola shaklida ilmiy jurnallarda chop etish izlanuvchilarning ilmiy tajribasini va erishgan natijalarni keng jamoatchilik e’tiboriga yetkaziladi.

73. **Ilmiy tezis** – bu muayyan soha bo‘yicha ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag‘ishlangan hamda unda ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar ilgari surilgan ilmiy-tadqiqot natijasini qisqa va lo‘nda shaklda ifodalanadigan ilmiy-tadqiqot ishi. Ilmiy tezis ilmiy-tadqiqot natijasi sifatida ilmiy tadbirlar (konferensiya, davra suhbati) o‘tkazilishidan oldin yoki tadbirlar yakuni bo‘ycha e’lon qilinadigan nashrlarda (konferensiya to‘plami, davra suhbati to‘plami) chop etiladi.

74. **Monografiya -** qoida tariqasida, bir muallif (tadqiqotchi) tomonidan yoziladigan muayyan muammo yoki mavzuni to‘liq va batafsil tadqiq etishga (fundamental ilmiy-tadqiqot natijasi) bag‘ishlangan ilmiy yoki ilmiy-ommabop nashr. Monografiyani chop etishdan maqsad amalga oshirilgan ilmiy va amaliy ishlarning natijalarini umumlashtirish hisoblanadi. Monografiya muayyan sohadagi dolzarb mavzuni chuqur tadqiq etishga qaratiladi, ushbu mavzu yuzasidan tegishli adabiyotlar keng tahlil etiladi va umumlashtiriladi, fanni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi g‘oyalar va gipotezalar ilgari suriladi. Doktorlik dissertatsiyalari doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotarning muayyan qismi monografiya ko‘rinishida ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishi mumkin.

75. **Risola (broshyura) -** muayyan sohaning institutlarini (kichik tarmoqchalarini) dolzarb ahamiyatga molik masalalarining asosiy jihatlari tahlil etiladigan, asosiy tushunchalar bayon etiladigan hamda mavzuga oid muammolar yuzasidan umumiy yechimlar keltiriladigan yoki jamiyatdagi mavjud muammolar yechimlarni ommaga tushunarli tilda ifodalash maqsadida yaratiladigan ilmiy-tadqiqot ishi.

Qoida tariqasida, risola 3-4 bosma taboqdan ko‘p bo‘lmagan, yumshoq muqovaga ega bo‘lgan shaklda chop etiladi.

76. **Dissertatsiya -** bilimlarning tegishli tarmog‘ida muhim ahamiyatga ega masalaning yangi yechimidan iborat yoki dolzarb ilmiy masalaning yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqilgan tugallangan shakldagi ilmiy ish. Shuningdek, dissertatsiyada muhim ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy yoki amaliy muammolar yechimi keltirilgan yoki tegishli fan sohasining istiqbolli yo‘nalishini rivojlantirish uchun yirik yutuq sifatida baholanadigan yangi nazariy qoidalar kompleksi ishlab chiqilgan bo‘lishi yoki joriy etilishi fan va texnika, ijtimoiy- siyosiy soha yoki iqtisodiyot tarmog‘ining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadigan nazariy-metodologik va uslubiy asoslar, ilmiy asoslangan texnik, iqtisodiy yoki texnologik yechimlar ishlab chiqilgan (takomillashtirilgan) bo‘lishi mumkin.

IX. Ilmiy-tadqiqotlar mazmuniga qo‘yilgan talablar

77. **Ilmiy maqola** mazmuniga qo‘yilgan talablar:

Ilmiy maqola muayyan soha bo‘yicha ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag‘ishlanadi va unda belgilangan muammolar atroflicha qiyosiy tahlil qilinib, ilmiy-nazariy hamda amaliy yechim (xulosa)lar keltiriladi.

Maqolada muallifning ilmiy qarashlari aks ettirilishi kerak. Plagiatga yo‘l qo‘yilmasligi, havolalarni to‘g‘ri va to‘liq taqdim etish lozim.

78. Maqolaning quyidagi tuzilma (struktura)ga rioya qilingan holda tayyorlanishi tavsiya qilinadi:

qisqacha kirish - maqola mavzusiga oid fanning taraqqiyoti darajasi va tanlangan muammoning dolzarbligi aks ettiriladi;

qo‘yilgan maqsad va uni asoslash - maqoladan ko‘zlangan maqsad yoritilgani holda tanlangan muammoning fandagi shu muammolar ichidan xususiyligi yoki alohidaligi ajratib ko‘rsatiladi va ilmiy-tadqiqot savollari keltiriladi;

ilmiy muammoning tavsifi va yechimi - mavzuga oid adabiyotlardan hamda ilmiy-tadqiqot jarayonida to‘plangan ilmiy va amaliy materiallar har tomonlama tahlil va tavsif qilinadi, shuningdek, tayyorlangan axborot matni ko‘rgazmali (illyustratsion) material bilan mustahkamlanishi mumkin. Ilmiy maqolada muayyan muammoga oid xorijiy davlatlar tajribasi, modellar tahlil etilishi va qaysi model mazkur muammoni hal etishga yordam berishi keltirilishi lozim;

yakuniy qism – har taraflama asoslantirilgan va isbotlangan ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosa va takliflardan iborat bo‘ladi.

Maqolalarda keltirilgan fikr-mulohaza va ma’lumotlar uchun muallif javobgardir.

79. **Ilmiy tezis** mazmuniga qo‘yilgan talablar:

Ilmiy tezis muayyan soha bo‘yicha ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag‘ishlanadi va unda ilmiy- nazariy va amaliy xulosalar ilgari suriladi. Ilmiy tezisda muayyan ilmiy-nazariy va amaliy muammoga taklif etilayotgan yechim bo‘lsa-da, uning mazmuni va nazariy-amaliy ahamiyati isbotlanishi talab qilinmaydi.

Ilmiy tezis amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot (ilmiy maqola, dissertatsiya va boshqalar)ning asosiy natijalarini qisqa va lo‘nda oshkor qilish maqsadida tayyorlanadi.

Tezisda muallifning ilmiy qarashlari aks ettirilishi kerak. Plagiatga yo‘l qo‘yilmasligi, havolalarni to‘g‘ri va to‘liq taqdim etish lozim.

80. Tezisning quyidagi tuzilmaga rioya qilingan holda tayyorlanishi tavsiya qilinadi:

qisqacha kirish - tezis mavzusiga oid tanlangan muammoning dolzarbligi

aks ettiriladi;

qo‘yilgan maqsad va uni asoslash - tezisdan ko‘zlangan maqsad yoritilgani holda tanlangan masalaning fandagi shu muammolar ichidan xususiyligi yoki alohidaligi ajratib ko‘rsatiladi;

xulosa qismi ilmiy-tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tadqiqot xulosalari beriladi.

Tezisda keltirilgan fikr-mulohaza va ma’lumotlar uchun muallif javobgardir.

81. **Ilmiy ish (dissertatsiya)** mazmuniga qo‘yilgan talablar:

Dissertatsiya fan va texnikaning muayyan sohasidagi katta ilmiy nazariy muammoni hal qilishi, fan va amaliyotning rivojiga hissa qo‘shadigan muayyan sohada belgilangan muammolarini ilmiy-nazariy va amaliy yechimlariga bag‘ishlangan bo‘lishi, ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag‘ishlangan bo‘lishi lozim.

82. Dissertatsiyaning kirish qismida quyidagilar yoritib berilishi kerak:

- dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati;
- ilmiy-tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi;
- dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi (faqat fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi uchun);
- muammoning o‘rganilganlik darajasi;
- dissertatsiya ilmiy-tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi;
- ilmiy-tadqiqotning maqsadi;
- ilmiy-tadqiqotning vazifalari;
- ilmiy-tadqiqotning obyekti;
- ilmiy-tadqiqotning predmeti;
- ilmiy-tadqiqotning usullari;
- ilmiy-tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- ilmiy-tadqiqotning amaliy natijalari;
- ilmiy-tadqiqot natijalarining ishonchliligi;
- ilmiy-tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati;
- ilmiy-tadqiqot natijalarining joriy qilinishi;
- ilmiy-tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi;
- ilmiy-tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi;
- dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.

83. Dissertatsiyaning asosiy matni uch qismdan iborat bo‘ladi: tahliliy, nazariy va amaliy va ular ikkitadan to‘rttagacha bobda jam qilinadi.

Tahliliy qismda dissertatsiya mavzusiga oid adabiy manbalar va ilmiy ishlar tahlil qilinadi, ular tanqidiy tahlil qilinadi va yetarlicha ishlab chiqilmagan

masalalar qatori aniqlanadi, ilmiy-tadqiqot usullari va ularning vazifalarini hal qilishda qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Tahliliy qism muayyan masala bo‘yicha keyingi ilmiy-tadqiqotlar zarurligi to‘g‘risidagi xulosalar bilan yakunlanadi.

Nazariy qismda tadqiqotchi o‘z ishlanmalarining tavsifini, ularni amalga oshirish usullarini taqdim yetadi va o‘rganish kursini boshqaradi.

Amaliy qismda tadqiqotchi ishlanmalariga muvofiq amalga oshirilgan hisob-kitoblar, tajribalar va tahlillar natijalari beriladi.

84. **Monografiya** mazmuniga qo‘yilgan talablar:

Monografiyada tadqiq etilayotgan ilmiy muammoni o‘rganishning dolzarbligi, mavjud holati, mavzuga oid adabiyotlarning qisqacha tahlili, asosiy ilmiy tushunchalar va terminlarning mazmuni kabi masalalar o‘z ifodasini topadi. Ushbu holat o‘quvchida monografiya bilan tanishishi uchun mo‘ljal olishi imkonini beradi.

Monografiyaning asosiy qismida mavzu mohiyati mantiqiy izchillikda, to‘liq va muayyan dalillar asosida bayon etiladi. Monografiyada tadqiq etilayotgan ilmiy muammoni hal etish uchun bevosita ahamiyatga ega bo‘lmagan qolgan barcha materiallar monografiyaning oxirida ilova shaklida berilishi mumkin.

Monografiyaning xulosa qismida tadqiq etilgan muammoning mantiqiy yakuni bayon etiladi, unda mazkur ishdagi muallifning umumlashtiruvchi yakuniy baholari ifodalanadi. Shuningdek, olingan natijalar, ilgari surilayotgan ilmiy xulosalar, amaliy takliflar, ilmiy izlanishlarni davom ettirish bo‘yicha keyingi vazifalar ham ko‘rsatib o‘tiladi.

85. **Ilmiy risola** mazmuniga qo‘yilgan talablar:

Ilmiy risolada tadqiq etilayotgan ilmiy muammoni o‘rganishning dolzarbligi, mavjud holati, mavzuga oid adabiyotlarning qisqacha tahlili, asosiy ilmiy tushunchalar va terminlarning mazmuni kabi masalalar o‘z ifodasini topadi.

Ilmiy risolada mavzu mohiyati mantiqiy izchillikda, to‘liq va muayyan dalillar asosida bayon etiladi. Ilmiy risolada tadqiq etilayotgan ilmiy muammoni hal etish uchun bevosita ahamiyatga ega bo‘lmagan qolgan barcha materiallar monografiyaning oxirida ilova shaklida berilishi mumkin.

Ilmiy risolaning xulosa qismida tadqiq etilgan muammoning mantiqiy yakuni bayon etiladi, unda mazkur ishdagi muallifning umumlashtiruvchi yakuniy baholari ifodalanadi. Shuningdek, olingan natijalar, ilgari surilayotgan ilmiy xulosalar, amaliy takliflar, ilmiy izlanishlarni davom ettirish bo‘yicha keyingi vazifalar ham ko‘rsatib o‘tiladi.

X. Akademik nohalollikni aniqlash va uni buzganlik uchun javobgarlik

86. GDPI xodimlari va professor-o‘qituvchilari o‘quv jarayoni hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatida akademik halollikka rioya etilishi uchun javobgardir.

87. GDPIda akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasiga rioya qilmaslik holatlari quyidagi shakllarda aniqlanishi mumkin:

o‘quv-uslubiy ishlar (darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va boshq.), BMI, magistrlik dissertatsiyalari hamda ilmiy-tadqiqot ishlari (ilmiy maqolalar, monografiyalar, PhD va DSs dissertatsiyalari)ni maxsus elektron antiplagiat (**Turnitin**) dasturlari vositasida tekshirish asosida;

akademik nohalollik haqida kelib tushgan murojaatlar (elektron, yozma yoki og‘zaki) yoki o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalarini o‘rganish asosida;

institut rahbariyatiga ijtimoiy tarmoqdagi maxsus bot orqali kelib tushgan murojaatlar va ularni tasdiqlanishiga ko‘ra;

institutning akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasiga rioya qilinishi ustidan nazorat qiluvchi tarkibiy tuzilmalar tomonidan o‘tkazilgan o‘rganishlar asosida;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan kelib tushgan murojaatlar va ularni o‘rganish asosida;

jamoatchilik nazorati shaklida talabalar, tadqiqotchilar va boshqa shaxslar tomonidan berilgan ma’lumotlarni o‘rganish asosida va boshqa qonun bilan taqiqlanmagan shaklda.

88. GDPI pedagog xodimlari quyidagi hollarda akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasini buzganlik uchun intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin:

yashirish - mazkur Kodeks qoidalarini buzish yoki qasddan ularga rioya qilmaslik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sir saqlash;

yo‘l qo‘yish - mazkur Kodeksga rioya qilinishi va uni ijrosini ta’minlash majburiyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat vazifasi sanalgan shaxs tomonidan ushbu Kodeks qoidalarini buzilishiga yo‘l qo‘yish yoki uni ijrosini qasddan ta’minlamaslik;

til biriktirish - har qanday baholanadigan ishni ta’lim oluvchining o‘rniga bajarish (muayyan to‘lov evaziga yoki bepul bo‘lishi ham mumkin);

akadem ma’lumotga noqonuniy ega bo‘lish va yoki uni tarqatish – imtihon materiallarini va yoki ularga javobni yetkazish, shuningdek ta’lim oluvchilarni/imtihon topshiruvchilarni beriladigan savollardan xabardor qilish, tayyor ma’ruza, esse, topshiriq va akademik ishlarni sotish va/yoki sotib olishda yordam berish; baholanadigan ishning har qanday javobini duch kelgan usulda o‘g‘irlash, jumladan, ta’lim oluvchiga taqdim qilish uchun elektron pochta orqali yoki kompyuterdan yuklab olish;

qalbakilashtirish - akademik ishdagi bahoni yoki topshiriqqa javoblarni, ma’lumotlarni, imzoni soxtalashtirish, akademik ishga qasddan zarar yetkazish yoki uni qalbakilashtirish;

vakolatlarni suiiste’mol qilish - turli shakldagi manfaatdorlik yoki

manfaatsiz holatda ta’lim oluvchilar baholanishiga ta’sir ko‘rsatish, lavozim majburiyatlari doirasida vakolatlarni suiiste’mol qilish, ijobiy baholash to‘g‘risida iltimos qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini muhokamalarida ta’sir ko‘rsatish;

o‘zgartirish (bahoni ko‘tarish) - ta’lim oluvchiga moyillikdan va/yoki ko‘rsatgan xizmati uchun haq evaziga bahoni o‘zgartirish;

ilmiy-tadqiqot etikasi qoidalariga rioya qilmaslik – ilmiy-tadqiqot faoliyatida barcha darajadagi talabalar, xodimlar va professor-o‘qituvchilar tomonidan mazkur Kodeks qoidalarini buzish yoki boshqalar tomonidan buzishga yo‘l qo‘yishda ifodalangan harakat (harakatsizlik).

XI. Akademik kengash va Ilmiy-tadqiqot etikasi kengashi tomonidan akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasini buzgan xodim va talabalarning javobgarligini ko‘rib chiqish

89. Akademik kengash va Ilmiy-tadqiqot etikasi kengashi tomonidan akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi bo‘yicha mazkur Kodeks va boshqa hujjatlarda belgilangan qoidalarni buzgan xodim va talabalarning javobgarligi ushbu kengashlarning Nizomlari asosida ko‘rib chiqiladi.

90. Akademik kengash o‘z vakolatlari doirasida talabaga (bakalavr va magistr) akademik nohalollikka yo‘l qo‘yganida quyidagi sanksiyalarni qo‘llashi mumkin:

nazorat ishi uchun qoniqarsiz baho - “0” (nol) ball qo‘yilishi;

stependiya berilishini tugatish;

mazkur Kodeksning 14, 15, 20, 21, 23–25, 28-bandlarida (ushbu bandlar bilan cheklanmaydi) nazarda tutilgan akademik nohalollik (qoidabuzarlik)ka yo‘l qo‘yish – hayfsan berilishi;

institutdan chetlatish;

mazkur Kodeksning 22 va 25-bandlarida, shuningdek hayfsan qo‘llanilganidan so‘ng 19, 22, 21, 29, 32, 60-bandlarida nazarda tutilgan akademik nohalollik (qoidabuzarlik)ka qayta yo‘l qo‘yish - to‘g‘ridan-to‘g‘ri kursdan kursga qoldirishga yoki mehnat shartnomasini bekor qilishga asos bo‘lishi mumkin.

91. Fakultetlar mazkur Kodeksning buzilish holatlari haqida ma’lumotni saqlashi va uni O‘quv-uslubiy boshqarmaga hamda Akademik kengashga tegishli masalalarni hal qilish uchun taqdim qilishi kerak.

92. GDPI pedagog xodimlari, tadqiqotchilari va xodimlariga ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi akademik halollik va ilmiy-tadqiqot etikasi qoidalarini buzganlik uchun hayfsan intizomiy jazosi qo‘llash yoki mehnat shartnomasini bekor qilish masalasi, zaruratga ko‘ra, Ilmiy-tadqiqot etikasi kengashi tomonidan ko‘rib chiqilib, institut rektoriga tavsiya kiritiladi.

93. Sanksiyani qo‘llash bo‘yicha qaror ustidan besh ish kunida

apellyatsiya berilishi va u bir oy ichida Institut Kengashi tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

XII. Yakuniy qoida

94. Ushbu Kodeksga rioya qilish orqali, GDPI akademik halollik madaniyatini shakllantirishga va ta’limda mukammallikka erishishga hissa qo‘shadi. Ushbu siyosat tegishli va samarali ekanligiga ishonch hosil qilish uchun vaqti-vaqti bilan ko‘rib chiqiladi. Qo‘shimcha va o‘zgartirishlar manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari, qonuniy talablari yoki joriy akademik amaliyot va tendensiyalar bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish asosida amalga oshirilishi mumkin.

95. Kodeksga GDPI Kengashining qarori bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.